

Masofadan turib onlayn usulda [E-imzo.soliq.uz](https://e-imzo.soliq.uz) veb-sayti orqali elektron raqamli imzo (ERI) kalit sertifikatini olish bo'yicha QO'LLANMA

Masofadan turib, onlayn usulda **E-imzo.soliq.uz** veb-sayti orqali elektron raqamli imzo kalit sertifikatini qanday olish mumkin?

Dastlab **e-imzo.soliq.uz** veb-saytininng bosh sahifasidagi "Elektron kalit olish" tugmasi, so'ngra "Ariza shaklini to'ldiring" tugmasi bosiladi.



The screenshot shows the main page of the e-imzo.uz website. The header includes the logo and navigation links: Asosiy, Elektron imzo olish, Elektron imzo haqida, Qo'llanmalar, Hujjatlar, O'zbekcha, and Ariza holati / tasdiqlash. The main heading is "Elektron raqamli imzo" with the subtitle "Yopiq kalitning egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo". A prominent button labeled "ELEKTRON KALIT OLISH" is highlighted with a red box. Below the heading are three buttons: "Parolni almashtirish", "To'lash", and "ERI Parolini olish".

ELEKTRON KALITNI QUYIDAGICHA OLISH MUMKIN

Online selfie Online FacelID Oddiy usul

To'lov qilish
Elektron raqamli imzo kalit sertifikatini uchun to'lovni bank kassalari yoki quyidagi to'lov tizimlaridan biri orqali amalga oshiring: payme, click, upay, paynet

So'rovnomani to'ldirish
Elektron raqamli imzo kalit sertifikatini olish uchun ma'lumotlarni kiritib so'rovnomani to'ldirib, "QR-code"ni shakllantiring.


Ma'lumotlarni tasdiqlash
"QR-code"ni "Soliq" mobile ilovasidan "Elektron raqamli imzo" bo'limidagi "Elektron kalitni tasdiqlash" tugmasi orqali skanerlang va Face-ID orqali shaxsingizni tasdiqlang.

Kalitni yaratish
"Kalit yaratish" tugmasini bosib Elektron raqamli imzo kalit sertifikatini olganligingizni tasdiqlang.

[Ariza shaklini to'ldiring](#)

i ERIni eksterritorial tamoyil bo'yicha, ya'ni istalgan hududdagi Davlat xizmatlari markazlari orqali olish mumkin.

Shundan so‘ng Yuridik yoki Jismoniy shaxs maqomi tanlanib, belgilangan maydonlar to‘ldiriladi va keyingi qadamga o‘tiladi.



1 2 3

Kim ekanligingizni belgilang:


Yuridik shaxs Jismoniy shaxs

JSHSHIR:

Mobil telefon raqami:

Rasmdagi kodni kiriting: 

[Keyingi qadam >](#)



1 2 3

Kim ekanligingizni belgilang:

Yuridik shaxs Jismoniy shaxs

STIR:

Yuridik shaxs rahbari JSHSHIR:

Mobil telefon raqami:


Rasmdagi kodni kiriting: 

[Keyingi qadam >](#)


Diqqat!

Jismoniy shaxs tegishli oynada belgilangan qatorga 14 raqamdan iborat JSHSHIRni kiritadi.

JSHSHIR haqida quyidagi rasm orqali bilib oling!



Ko'rsatilgan telefon raqamiga yuborilgan SMS shaklidagi tasdiqlash kodini kiritib, ariza va telefon raqami tasdiqlanadi.



1 ————— 2 ————— 3


Tasdiqlash kodi telefonga yuborildi

Tasdiqlash kodi
28347

✓ Tasdiqlash

Navbatdagi qadamda ERI kalit fayl nomi shakllanadi. ERI kalit yaratiladigan disk tanlanib, ERI kalitga 8 xonali raqamlardan iborat parol kiritiladi va arizaning to'g'ri ekanligi tekshirilgach, **QR kodni shakllantirish** tugmasi bosiladi.

Diqqat! Ushbu shaklda kiritilgan ERI kalit parolini esda saqlab qoling.



1 ————— 2 ————— 3

Jismoniy shaxs

JSHSHIR: [redacted]

Imtiyozni tanlang
Yo'q

Diskni tanlang
C:\

Kalit faylining nomi
DS [redacted]

Parol

Parolni takrorlash


Balans: 119 000.00

ERI narxi: 26 250


Ariza shaklini ko'rish

Ariza to'g'riligini tekshirdim




QR-code shakllantirish



Shakllantirilgan QR-kodni, oldindan mobil telefonga sozlangan “Soliq” mobil ilovasining “Elektron raqamli imzo” bo‘limidagi “Elektron kalitni tasdiqlash” tugmasi orqali skanerlang va Face-ID orqali shaxsingizni tasdiqlang.



Face-ID orqali ariza ma’lumotlari tasdiqlanganidan so‘ng “Kalit yaratish” tugmasini bosib, ERI kalitga qo‘yilgan parolni ikki marotaba kiritib ERI kalitni faollashtirishingiz mumkin.



DIQQAT!

ERI kalit sertifikatlarini olish uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan bazaviy hisoblash miqdorining 10% miqdorida (37 500 so‘m), jismoniy shaxslardan esa 7% miqdorida (26 250 so‘m) miqdorida yig‘im undiriladi.

To‘lovlar bank kassalari yoki elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilishi mumkin:

(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.05.2018 yildagi 348-sonli [Qarori](#).)

Qo‘shimcha savollar tug‘ilganda markazning (71) 202-32-32 raqamiga murojaat qiling.